Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 1
FILOLOGIYA

TILDA SUBYEKTIVLIK VA QADRIYAT: MODALLIK KATEGORIYASINING LINGVOAKSIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Yoqutxon Baxromjon qizi To'xtasinova*
Qo'qon davlat universiteti tayanch doktoranti
✉ toxtasinovayoquthon@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi modal so'zlar va modal ma'noli birliklarning lingvoaksiologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Modal birliklar so'zlovchining munosabati shuningdek, baholash, burch, majburiyat va samimiylik kabi aksiologik mezonlarni ifodalovchi lisoniy vosita ekanligi misollar bilan asoslanildi.

Kalit so'zlar

lingvoaksiologiya, subyektivlik, modal so'zlar, modal ma'noli so'zlar, baholash kategoriyasi

DOI: 10.5281/zenodo.21743670

Kirish.

Zamonaviy tilshunosligimizda "Lingvoaksiologiya" yo'nalishi mavjud bo'lib, unga daxldor bo'lgan "Aksiologik modallik va aksiologik baho" aynan mana shu keng qamrovli leksik sathda, ya'ni modal ma'noli so'zlar va modal so'zlar tizimida o'z ifodasini topadi. "Voqelikka, undagi narsa va hodisalarga nisbatan qadriyatli munosabat hamda ularni qadrlash tuyg'usi asosida shakllangan hukm va xulosalar aksiologik bahoda aks etadi. Aksiologik baholash narsa, hodisa yoki jarayonning iqtisodiy qiymatini, foydaliligini belgilash orqali emas, balki uning subyekt ma'naviy olami uchun qanday ahamiyat kasb etishini aniqlash orqali amalga oshadi"[2, b.24]. Aksiologik modallik esa, matnda qadriyat semasiga ega tushuncha va leksemalarga nisbatan subyektning shaxsiy munosabati sifatida aks etadi. Demak, aksiologik baho negizini aksiologik modallik tashkil etar ekan. Bu haqda o'zbek tilshunoslari quyidagi xulosaga kelgan: "Baho ifodalashda sintaktik-semantik usul alohida o'rin tutadi va muhim ahamiyat kasb etadi, chunki har qanday gapning mazmuniy mundarijasi diktal va modal ma'nolarning munosabatidan iborat bo'ladi"[3, b.34]. Anglashiladiki, modallik odatda so'zlovchining bayon etilayotgan fikrga bo'lgan munosabatini ifodalovchi semantik-grammatik kategoriya sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan aksiologik modallik umumiy modallikning xususiy ko'rinishi bo'lib, u aynan baholash (aksiologik baho) komponenti bilan xarakterlanadi. Lisoniy tizimda ushbu baholash mazmuni nafaqat modal so'zlar bilan, balki keng ko'lamdagi modal ma'noli so'zlar bilan ham yuzaga chiqadi. Bu birliklar turli semantik guruhlarga mansub bo'lsa-da, matnda so'zlovchining subyektiv-baho munosabatini ko'rsatishda mushtarak pragmatik vazifani bajaradi. Aynan mana shu nuqtada ham modal so'zlar, ham modal ma'noli so'zlar aksiologik modallik bilan bevosita bog'lanadi. Masalan, *"Afsuski, bu imkoniyat boy berildi"* jumlasida modal so'z voqelikka nisbatan salbiy aksiologik bahoni bildirsa, *Yaxshiyamki, muammo o'z vaqtida hal bo'ldi* jumlasida esa, modal so'z ijobiy qadriyat munosabatini ifodalaydi. Biroq *"bu imkoniyat boy berilganidan afsusdaman* yoki *muammoning o'z vaqtida hal bo'lgani yaxshi"* gapida aksiologik baho bevosita modal ma'noli so'zlar (*afsusdaman, yaxshi*) orqali gapning ichki mazmuniy qatlamida ifodalangan. Demak, modal so'zlar va modal ma'noli so'zlar nafaqat mantiqiy yoki kommunikativ munosabatni, balki ijtimoiy, axloqiy, estetik va madaniy qadriyatlar bilan baholashni turlicha lisoniy usullar bilan yuzaga chiqaradi. Demak, aksiologik modallik, aksiologik baho, modal

so‘zlar va modal ma’noli so‘zlar o‘rtasidagi bog‘liqlik umumiy “subyektiv munosabat” tushunchasi atrofida birlashishidir.

V.Kostyuchenko ham aksiologik modallikni ifodalovchi leksemalar qatoriga kirish so‘z va kiritmalarning ham qo‘shilishni ma’qul ko‘radi [1, b.36]. Negaki, bu sintaktik birliklarda muallifning shaxsiy munosabati nisbatan ko‘proq aks etgan bo‘ladi. Bu aks ettirish nutqiy jarayon orqali yuzaga chiqadi va so‘zlovchi ba’zan o‘zi sezmagan holda fikriga turli modal munosabatlarni qo‘shadi: *“Ha, to‘g‘ri, biz tushunarsiz yashadik, – dedi g‘amgin tusda, – har bosgan qadamimiz odamlar uchun shubhali va qorong‘u bo‘lib qolgan, albatta, bunga siz emas, o‘zimiz aybdormiz”*. (N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam. – B. 194)

Ushbu matnda subyektiv munosabat ham kirish so‘zlar *(to‘g‘ri, albatta),* ham voqelikka nisbatan shubha va ishonchsizlik munosabatini berayotgan modal ma’noli so‘z *(shubhali),* shuningdek, matnning umumiy salbiy aksiologik bo‘yog‘ini va emotsional ma’nosini kuchaytiruvchi mustaqil leksik birliklar (*tushunarsiz, g‘amgin, qorong‘u, aybdormiz*) orqali yuzaga chiqqan.

Tilshunosligimizda “modal ma’noli so‘zlar” tushunchasi mavjud bo‘lib, o‘zining serqirraligi va ko‘lamdorligi bilan modallik kategoriyasining ajralmas universal leksik-semantik qismini tashkil etadi. Aynan biz tadqiq etayotgan modal so‘zlar esa ushbu maydonning bir evolyutsion taraqqiyot bosqichida shakllangan xususiy, morfologik qismini ifodalaydi. Binobarin, keng qamrovli funksional-semantik kategoriyadan bevosita morfologik turkumga xos modal so‘zlarga o‘tish uchun ular o‘rtasidagi bog‘lovchi va genetik asos bo‘lgan modal ma’noli so‘zlar qatlamini nazariy jihatdan asoslab o‘tish joizdir. Qolaversa, modal so‘zlar tilda tayyor holda paydo bo‘lmaganligi ma’lum. Ular uzoq lisoniy o‘zgarishlar natijasida, aynan tarkibida modallik semasi mavjud bo‘lgan lug‘aviy birliklarning o‘z mustaqil ma’nosini yo‘qotishi hisobiga shakllangan. Bizningcha, modal so‘zlarning tabiatini ularning asosi bo‘lgan modal ma’noli so‘zlarni tahlil qilmasdan to‘liq yoritib berish imkonsiz. Darhaqiqat, modal ma’noli so‘zlar aksiologik modallikning dastlabki lisoniy aksidir. Tilshunosligimizda izohlanilganidek, “O‘zbek tilida modal ma’nolar bir qancha yo‘llar bilan – ot, fe’l va ravishlarning ayrim shakllari, shuningdek, yuklama va modal so‘zlar bilan ifodalanadi. Ayrim bog‘lovchi va bog‘lovchilashgan so‘zlar gapning ba’zi turlariga modallik tusini beradi”[4, b.370]. Shunday ekan, modallikni ifodalovchi barcha leksik birliklar va modal so‘zlar bir-biriga chambarchas bog‘liq tushunchalardir. Modal so‘zlardan farqli o‘laroq, modal ma’noli so‘zlar gapda to‘liq leksik ma’noga ega bo‘lgan mustaqil so‘zlar sifatida ishtirok etadi. Ular orqali matnda haqiqat, bilish, majburiyat va mavjudlik kabi asosiy tushunchalar yuzaga keladi.

“Modal ma’noning leksik usulda ifodalanishi ikki xil bo‘ladi: 1. Maxsus so‘z bilan ifodalanadi. Bular modal so‘z deb ataladi. 2. Biror turkumga (masalan, otga, sifatga) mansub so‘z orqali ifodalanadi. Bular odatda yo modal ma’noli so‘z yoki konteksga ko‘ra modal ma’no ifodalab keladi”[5, b.581]. Modal ma’noni ifodalash uchun xizmat qiladigan, mustaqil leksik-semantik guruhni tashkil etuvchi so‘zlar modal so‘zlar deb ataladi. Bu so‘zlar gap mazmuniga so‘zlovchining subyektiv munosabatini qo‘shadi, lekin gap bo‘lagi vazifasida kelmaydi. Modal ma’noning boshqa so‘z turkumlariga mansub so‘zlar orqali ifodalanishi deyilganda, leksik tizimdagi ma’lum so‘z turkumlariga mansub birliklar o‘zining asosiy lug‘aviy ma’nosidan tashqari, qo‘shimcha modal semantik yuklamani oladi. Bunday holatda modal ma’no: so‘zning semantik rivoji yoki nutqiy vaziyat ta’siri natijasida yuzaga keladi. Shu bilan birga, tilimizda harakat nomi (infinitive) va munosabat ifodalovchi turg‘un leksik vositalar ham o‘zaro birikib, turg‘un modal birikmalarni hosil qiladi. Masalan, *borish kerak; nizomga rioya qilish zarur; olish mumkin* kabi. Bunday birikmalar tarkibidagi *kerak, lozim, zarur, darkor, shart, mumkin* kabi birliklar modal ma’no doirasi kengligi sababli ayrim manbalarda modal so‘zlar, boshqa manbalarda esa modal ma’noli predikativ leksemalar sifatida talqin etiladi. Ammo har ikkala vaziyatda ham bu so‘zlarning bosh funksiyasi voqelikka nisbatan zaruriyat, ehtiyoj va imkoniyat kabi aksiologik-modal munosabatni shakllantirishga qaratilgan. Quyidagi ma’lumotda bu so‘zlar modal ma’noli so‘zlar deb nomlangan: “Zaruriyat ma’nosini ifodalovchi bu kabi so‘zlar modal so‘zlar emas, balki modal ma’noli so‘zlardir. Chunki modal so‘zdan farqli ravishda yuqoridagi so‘zlar gap bo‘lagi bo‘lib yoki gap bo‘lagi tarkibida keladi, demak, gap bo‘laklari bilan sintaktik bog‘lanadi”[5, b.588]. Masalan, *borishim kerak,* yoki *borish kerak* kabi konstruksiyalarda *kerak* so‘zi qo‘shma kesim tarkibida kelib, bizningcha ham, modallik ifodalamoqda. Bu so‘zlar modal ma’no ifodalasa-da, grammatik jihatdan boshqa bo‘laklar bilan uzviy bog‘lanadi.

Xulosa.

Lingvoaksiologiya – inson tafakkurida shakllangan qadriyat va baholash mezonlarining tilda aks etishini o‘rganuvchi tilshunosligimizning zamonaviy sohasidir. Modal ma’noli so‘zlar esa, ana shu qadriyatni ijtimoiy norma va burchga aylantiradi. So‘zlovchi jamiyat oldidagi mas’uliyatini va axloqiy mezonlarini bayon eta oladi. Modal so‘zlar subyektiv – shaxsiy munosabatni (ichki bahoni) nutqda subyektiv his-tuyg‘uga o‘rab ifoda etadi. Shunday ekan, bu uch tushuncha tilda subyektivlik va qadriyatning namoyon bo‘lishida biri ikkinchisini taqozo etuvchi chambarchas zanjirdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Костюченко В. Аксиологическая модальность в русских и английских сетевых ток-шоу и интернет-комментариях: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты // *Вестник МГЛУ. Серия 1. Филология*. – Минск: МГЛУ, 2019. – № 2 (99). – С. 36.
2. Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). – Тошкент: Файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2004. – Б. 24.
3. Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солиҳўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: «Фан» нашриёти, 1992. – Б. 34.
4. Турсунов У., Мухтаров А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: «Ўзбекистон», 1992. – Б. 370.
5. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. – Тошкент: Ўзбекистон ССР «ФАН» нашриёти, 1973. – Б. 581